

O'TKIR RESPIRATORVIRUSLI INFEKTSIYALAR

*Termiz davlat pedagogika instituti tabiiy fanlar
fakulteti biologiya ta'lim yo'nalishi talabasi*

Abdusamadova Go'zal Kamoliddin qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inflyuensa, paragrip, adenovirus infeksiyasi va qizamiq kabi virusli infeksiyalarning etiologiyasi va patogenezini, patologik anatomiyasi, davolash choralari, qaysi organlarga zarar berishi, farmakologik ta'sir yo'llari, asoratlari hamda klining ko'rinishlari haqida mma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *shilliq parda, intoksikatsiya, inflyuensa, ortomiksoviruslar, paramiksovirus, laringit, bronxiolit, pnevmoniya, laringotraxeobronxit, rinit, faringit, serotip, deskvamatsiya, neytrofil, makrofag, enantema, ekzantema, kataral, toshma, pigmentatsiya davrlari.*

Virusli infeksiyalar juda xilma xil bo'lishi bilan ajralib turadi, chunki infeksiyon kasalliklarni, jumladan latent, ya'ni yashirin holda o'tadigan kasalliklarni qo'zg'ata oladigan viruslar mavjud. O'tkir respirator virusli infeksiyalar ayniqsa yoshi katta kishilar va go'daklar orasida uchraydigan kasallanish va o'lish hollarining asosiy sabablaridan biridir. O'RVI ning asosiy qo'zg'atuvchilari A,B,grip,paragrip viruslari, adenoviruslar, respiratorsinsial viruslardir.

Grip(sinonimi-inflyuensa)nafas yo'llari shilimshiq pardasi zararlanib, umumiy intoksikatsiya asoratlari bilan o'tadigan va epidemiyalar, pendemiyalar ko'rinishida tarqaladigan kasallik. Grip qo'zg'atuvchilari ortomiksoviruslar oilasiga mansub RNK li pnevmatrop viruslardir. Bular uch tipga:A,B va S tiplarga bo'linib, o'zlarining antigen xossalari bilan farq qiladi va fermentative hamda gemegglutinatsiyalovchi faollikga ega. Virusning o'zagi spiral ribo-nukleoproteiddan iborat va ularning kattaligi 80-100nm bo'ladi. Virus bemor odam gaplashganida, yo'talgan va aksa urganda so'laklari, shilimshiq, balg'am zarralari bilan birga tashqariga chiqib turadi. Shu tomchi havoda qurib uzoq saqlanib turadigan aerzollarga aylanadi. Grip virusi aerzollar holida 5 haftagacha uy changida 2 haftagacha o'rin va ko'rpalarda saqlanib turadi. Yuqori nafas yo'llari shilliq pardasida seroz, kataral, seroz-gemorragik rinit, laringit, traxeit, traxeobronxit ko'rinishida o'tkir yallig'lanish reaksiyasi boshlanadi. Bunda shilliq pardoning yallig'lanib qizarib turishi, unda nuqta nuqta qontalashlar bo'lishi, gripning harakterli belgisi hisoblanadi. Gripning eng ko'p uchraydigan asoratlari jumlasiga pnevmoniylar kiradi.

Paragrip yuqori respiratorli infeksiya bo'lib, yuqori nafas yollarida uchraydi. Bu grip paramikroviruslar oilasiga kiradi va u kataral laringotraxeobronxitda boshlanib hiqildoqda hammadada yaqqol ko'rinadigan o'zgarishlar paydo bo'lishi bilan ta'riflanadi. Paragrip

pnevmaniya, tomzillit, sinsuit, otit ko'rinishidagi ikkilamchi infeksiyalar qo'shilishiga bog'liq. Yevstaxit boshlanishi ham mumkun.

Adenovirus infeksiyasida nafas yo'llari, ko'z konyunktivasi, tomoq va hiqildoq limfoid to'qimasi patalogik jarayonga tortilib ketadi. Ichak va qorin bo'shlig'idagi limfa tugunlari ham zararlanadi. Bu virus hujayralar yadrolari ichida kritmalar hosil qiladigan DNKli adenoviruslardir. Bu infeksiya sporali kichik epidemyalar va sporali kasalliklar ko'rinishida o'tadi. Kasallikning yengil xilida yuqori nafas yo'llarining o'tkir kataral yallig'lanishi boshlanadi. Og'ir xilida virus tarqalib ketadi yoki ikkilamchi infeksiya ham qo'shiladi. Adenovirus asoratlarining jumlasiga otitlar, sinusitlar, anginalar va pnevmoniyalar kiradi.

Qizamiq nafas yo'llari shilliq pardalari va badan terisiga dog'simon papulyoz toshma toshishi bilan tariflanadi. Virus tarkibida RNK tutuvchi miksoviruslar guruhiga kiradigan virusdir, o'lchami 150nm keladi. Bu virusning organizimga kiradigan asosiy yo'li ko'z konyunktivasi hisoblanadi. Konyunktiva, tomoq, traxeya va bronxlarning shilliq pardalarida kataral yallig'lanish boshlanib eng og'ir holatida nekroz ham ro'y beradi. Enantema lunjlar shilliq pardasida oqish dog'lar ko'rinishida paydo bo'ladi. Ekzantema yuz, bo'yin, gavda sohasida va qo'l-oyoqlarning yoziluvchi yuzalarida paydo bo'ladigan dog'simon yirik toshmadir.

Xulosa: O'tkir respirator virusli infeksiyalar nafas olish yo'li a'zolarida, ko'z konyunktivasi va terining ayrim qisimlarida ham mavjud bo'lib, insonlarda yallig'lanish bilan bog'lik kasalliklarni keltirib chiqaradi. Hozirgi kunda zamonaviy tibbiyotda qizamiq, grip, paragrip va adenovirus kabilarga davo choralari mavjud. Bu viruslar barcha insonlarda ularning immun sistemasining holatiga qarab turlicha darajalarda uchraydi, ya'ni og'ir, yengil va o'rta hollarda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.S.Abdullaxo'jayeva PATALOGIK ANATOMIYA 2- Qism "Tafakkur Bo'stoni" Toshkent-2012
2. N.H.Abdullayev, H.YO.Karimov, B.O'.Irisqulov PATALOGIK FIZIOLOGIYA Toshkent "Yangi asr avlodi" 2008
3. I.Muhammeov, E.Eshboyev, N.Zokirov, M.Zokirov MIKROBIOLOGIYA IMMUNOLOGIYA VIRUSOLOGIYA Toshkent "Yangi asr avlodi" 2006
4. Q.Ch.Chartaqov, M.A.Mamataliev, H.M.Aliyev UMUMIY PATALOGIYA
5. refseek.com
6. worldcat.org
7. academic.microsoft.com